O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
TOSHKENT SHAHAR
BOSHQARMASI

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-45, E-mail: dav_ekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Pulatov Mirkobil Miradilovich

Sana: 26-05-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

242433 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Bektemir tumani, "Musaffo" MFY 346-sonli maktabni rekonstruksiya qilish (Korrektura).	
Buyurtmachi:	INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH INJINIRING KOMPANIYASI DM
Bosh loyihachi:	"EXPRESS ENGINEERING" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	068710

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2024-yildagi PQ-454-sonli qarori.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.60.2024-yildagi 407-sonli qarori.

1.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.09.2024-yildagi 102/40-sonli rayosati majlisining bayoni.

1.4. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyihalashtirish ishlarini amalga oshirish uchun 24.10.2024-yildagi 1726-1726264-204091-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 17.12.2024-yildagi 163410686-sonli xulosasi.

1.6. Davlat Ekologik ekspertizasi Toshkent shahar filialining 23.12.2024-yildagi 01-02/14-3315-sonli xulosasi.

1.7. Buyurtmachi tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan hamda Toshkent shahar Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi bilan kelishilgan loyihalash topshirig‘i.

1.8. “O‘zgashkLITI” MChJ Toshkent shahar va viloyati filiali tomonidan 2024-yilda berilgan Qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosasi.

1.9. “Hududgaz Poytaxt” GTF tomonidan 18.11.2024-yilda berilgan 101296-sonli texnik shart.

1.10. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJ tomonidan 21.11.2024-yilda berilgan 270/4-5365-sonli texnik shart.

1.11. “Toshkent shahar hududiy elektr tarmoqlari” MCHJ tomonidan 21.11.2024-yilda berilgan 05-2748-sonli texnik shart.

1.12. Buyurtmachi va bosh loyihachi o‘rtasida 04.11.2024-yilda imzolangan 124034-sonli shartnomasi.

1.13. Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 17.01.2025-yilda tasdiqlangan va Davlat dusturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika shtabi hamda Qurilish va uy-joy vazirligi bilan kelishilgan 1-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoni.

1.4. Buyurtmachining 27.12.2024-yildagi 02-09/1233-sonli xati.

1.15. Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligi tomonidan 10.01.2025-yilda tasdiqlangan 01/2-14/2-sonli narxlar kelishuv bayonnamasi.

1.16. Toshkent shahar qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida hududiy nazorat qilish inspeksiyasining 2024-yildagi texnik hisoboti.

1.17. “Infratuzilmani rivojlantirish IK” Toshkent shahar hududiy bo‘linmasining06.05.2025-yildagi 360-sonli xati.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “Ishchi loyiha” bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja loyiha chizmalari;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- temirbeton konstruktsiyasi loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar va hisob-kitoblar;
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- yong‘in xavfsizligi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- isitish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- obyektning energiya samarodorlik pasporti.

2.2. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Toshkent shahar boshqarmasining 31.01.2025-yildagi 229653-sonli yig‘ma ekspert xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonining o‘ziga xos xususiyatlari

- Tuproqning muzlash chuqurligi - 0,7 metr.
- Loyihaning hisobiy zilzilabardoshligi - 8 ball.
- Me’yoriy qor qatlami vazni - 50kg/m^2.
- Me’yoriy shamol bosimi - 38kg/m^2.
- Yer osti sharoitlari turi - II.

3.2. Bosh reja yechimlari.

Loyihalashtirilayotgan 346-sonli maktabni rekonstruksiya qilish ishlari Toshkent shahar, Bektemir tumani, "Musaffo" MFY hududida rejalashtirilgan.

Obyekt hududida mavjud 315 o‘rinli maktab binosi, yangi qurilayotgan 660 o‘rinli o‘quv binosi, bayroq, qozonxona, chiqindilar saqlash joyi, tozalash inshooti, tashqi hojatxona va boshqa inshootlar rejalashtirilgan.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Umumiy hudud	2,0059 ga.
Umumiy qurilish maydoni	0,4745 ga
Ko’kalamzorlashtirish maydoni	1,246 ga.

Yo‘llar va boshqa maydonlar 0,2849 ga.

3.3. Arxitektura yechimlari.

660 o‘rinli maktab binosi-yerto‘lasiz, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, umumiy o‘qlar bo‘yicha o‘lchamlari 42,2x15,8 metrni tashkil qiladi. Bino qavatlarining poldan shiftgacha balandligi 3,0 metrni tashkil qiladi.

Binoning birinchi qavatida tambur, vestibyul, yo‘lak, faollar zali, o‘quv ishlar bo‘yicha o‘rinbosar xonasi, hojatxonalar, elektr qutisi xonasi, nasos xonasi, psixolog, logoped va shifokor xonasi, laboratoriya, qabulxona, direktor xonasi, direktor o‘rinbosari xonasi hamda boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Binoning 2-4-qavatlarida o‘quv xonalari, zinapoya, yo‘lak, hojatxonalar, chet tili xonalari hamda boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni 693,5 m2.

Binoning umumiy maydoni 2380,0 m2.

Binoning umumiy hajmi 10402,5 m3.

“Infratuzilmani rivojlantirish IK” Toshkent shahar hududiy bo‘linmasining06.05.2025-yildagi 360-sonli xatiga asosan yangi quriladigan o‘quv binosidagi quyma zinapoyalar tayyor yig‘ma temirbeton zinapoyalarga almashtirish va hududdagi tashqi hojatxonani loyiha smeta hujjatlaridan chiqarib tashlash ishlari nazarda tutilgan.

Mavjud 315 o‘rinli maktab binosi (mukammal ta’mirlash) -yerto‘lasiz, P shaklida bo‘lib, umumiy o‘qlar bo‘yicha o‘lchamlari 58,6x38,8 metrni tashkil qiladi. Bino qavatlarining poldan shiftgacha balandligi 3,0 metrni tashkil qiladi.

Binoda tambur, vestibyul, yo‘lak, yo‘lak, o‘quv xonalari, hojatxonalar, ma’naviya xonasi, xoll, qabulxona, informatika xonasi va boshqa xonalar rejalashtirilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy qurilish maydoni 1429,4 m2.

Binoning umumiy maydoni 1223,1 m2.

Binoning umumiy hajmi 7004,1 m3.

3.4. Konstruktiv yechimlar.

Poydevorlar- B15 sinfli, lentasimon quyma temirbeton.

Tayyorlov qatlami 100 mm qalinlikdagi chaqiq toshdan.

Loyihada gidroizlyatsiya qilinishi ko`zda tutilgan.

Ustunlar-B20 sinfli 400x400 mm qirqim o`lchamdagi quyma temirbetondan.

To‘sinlar- 400x400 mm qirqimdagi B20 sinfli quyma temirbetondan.

Orayopmalar- g`ovakli plitalardan.

Zinapoyalar-quyma temirbetondan.

Devorlar va pardevorlar -g‘ishtdan.

Tom qismi profnastildan.

3.5. Yong‘inga qarshi texnik yechimlar.

Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi - II tipga mansub.

Konstruktiv yong‘in xavf sinfi - F4.1.

Binoning konstruktiv yong‘in xavf sinfi - C0.

Favqulotda chiqish eshiklari - yo‘laklardan hamda zinapoyalardan.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

3.6. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- binoning tashqi devorlari issiqlik ushlovchi bazalt qoplamasi bilan qoplangan.
- devorlar, qoplamalar tom qismi va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan.
- yoritish tizimida svetodiodli chiroqlari o‘rnatilgan.
- binoda qisqa vaqtda yonib-o‘chadigan qurilmalar (harakatni va yorug‘likni sezuvchi) yoritgichlardan foydalanilgan.
- kirish yo‘laklarida eshiklarni o‘zi yopuvchi mexanizmlar (dovochik) va berk yopilishi ta’minlangan.
- loyihada 550 w li jami 48 dona umumiy quvvati 26,4 kVt bo’lgan quyosh panellari rejalashtirilgan.
- loyihada umumiy 2 dona invetor loyihalashtirilgan. Shundan bir dona 20 kVt va bir dona 8 kVt.
- loyihada jami 2 dona har biri 100 litr bo‘lgan quyosh suv isitgichlari o‘rnatilishi rejalashtirilgan.

3.7. Nogironli bo‘lgan shaxslarga qulaylik yaratish loyihasi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan 17.01.2025-yilda tasdiqlangan va Davlat dusturlari ijro etilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika shtabi hamda Qurilish va uy-joy vazirligi bilan kelishilgan 1-sonli qo‘shma yig‘ilish bayoniga asosan nogironli bo‘lgan shaxslarga qulayliklar yaratish maqsadida bosh reja bo‘yicha hududning ichki yo‘laklariga kontrastli sariq rangli chiziqlar chizilgan. Binoning kirish eshiklariga maxsus belgilar o‘rnatilgan, panduslar tashkil qilingan, binoning ichki yo‘laklari bo‘ylab kontrastli sariq rangli chiziqlar chizilgan, zinapoyalarga ogohlantiruvchi yo‘ltiruvchi belgilar o‘rnatilgan hamda hojatxonalar tashkil qilingan, yuqori qavatlarga ko‘tarilish uchun maxsus kutarish qurilmasi o‘rnatish va boshqa bir qancha ish turlari loyihalashtirilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Loyihalanayotgan obyekt tasdiqlangan loyihalash topshirig‘iga hamda tegishli manfaatdor tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan texnik shartlarga asosan, elektr ta’minoti va elektr yoritish, yong‘in signalizatsiyasi, yong‘in xavfsizligi tizimi, suv va oqova suv tarmoqlari hamda isitish tizimi loyihada ko‘zda tutilgan.

4.2. Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-sonli qarori talablariga rioya qilinsin. Obyekt bo‘yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo‘yicha tegishli manfaatdor xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 17.12.2024-yildagi 163410686-sonli xulosasi.

5.2. Davlat Ekologik ekspertizasi Toshkent shahar filialining 23.12.2024-yildagi 01-02/14-3315-sonli xulosasi.

5.3. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo‘shimcha taklif va e’tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertizaga taqdim etilgan ishchi loyihalar ko‘rib chiqildi.

6.2. Ekspertiza jarayonida obyektga tegishli birlamchi hujjatlar va oraliq (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

6.3. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa hamda ekspertiza xulosasidagi talablar bajarilmasa ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.4. Eskpertiza natijalariga ko’ra loyihachi tashkiloti tomonidan tayyorlangan smeta hujjatlarining me’yoriy mehnat sarfi bo‘yicha – 58714,339 kishi/soatni, me’yoriy mashina va mexanzlar sarfi 11528,76 mash/soatni tashkil qiladi.
6.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021-yildagi “Respublikada ko’kalamzor-lashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-46-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 93-sonli qarorlariga qatiiy rioya etilsin.
6.6. Loyihani amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli farmoni tegishli bandlari bajarilsin.
6.7. “Ishchi loyiha” hujjatlari O‘zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya huzuridagi Tog'-kon Geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi bilan kelishilsin.
6.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.12.2019-yildagi PQ-4545-sonli qarorining bandlari bajarilsin.
6.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 26.12.2018-yildagi “Elektr tarmog‘i xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1050-son hamda 15.05.1998-yildagi 210-sonli qaroriga asosan, telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo‘riqlash qoidalariga amal qilinsin.
6.10. O'zbekiston Respublikasi Prezdentining 17.04.2024-yildagi 161-sonli qarori talablari rioya etilsin.
6.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energitika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4779-sonli qarori va QMQ 2.01.04-18 “Qurilish issiqlik texnikasi” talablariga to‘liq rioya qilishsin va energiya tejamkor materiallardan foydalanilsin.
6.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2022-yildagi PF-220-sonli farmonining tegishli bandlarida ko‘rsatilgan talablarga to‘liq rioya qilinsin.
6.13. Buyurtmachi, loyiha muallifi va pudrat tashkilotlari Mehnat va texnika xavfsizlik qoidalariga hamda yong‘in xavfsizligiga rioya qilinsin.
6.14. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 255-sonli qarori talablariqa rioya etilsin.
6.15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2018-yildagi 256-son va 20.04.2022-yildagi 200-sonli qarorlari talablariga qat’iy rioya qilingan holda buyurtmachi loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.
6.16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qaror Nizomining III-bob, 29-bandiga asosan ekspertiza tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.
6.17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021-yildagi 321-sonli qarorning 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida “Mualliflik nazorati”ni amalga oshirilishini ta’minlaydi.
6.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2024-yildagi PQ-454-sonli Qarorining 4 - bandida tovar, ish va xizmatlarning narx qismi - Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi belgilanligi sababli qurilish materiallari narxlari ekspertiza tomonidan ko’rilmadi.
6.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldani PQ-266-sonli va SHNQ 2.07.02-22 hamda SHNQ 2.08.07-22 talablariga to‘liq amal qilinsin.

7. Xulosalar.

7.1. “Toshkent shahar, Bektemir tumani, "Musaffo" MFY 346-sonli maktabni rekonstruksiya qilish (Korrektura)” ishchi-loyihasi ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tayyorlangan loyiha hujjatlari kelgusida ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun tavsiya etiladi.

7.2. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Toshkent shahar boshqarmasining 31.01.2025-yildagi 229653-sonli yig‘ma ekspert xulosasi smeta qismi o‘z kuchini yuqotgan deb hisoblansin.

Bosh ekspert: Mardonov Shohruh Isroil O‘g‘li.

Ishtirokchi ekspertlar: Alimjanov Muzaffar Anvarovich, Mardonov Shohruh Isroil O‘g‘li